



"OILA VA GENDER" ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

xalqaro ilmiy jurnali

*Society, Gender and Family in
Central Asia*
international academic peer reviewed journal

*Общество, гендер и семья в
Центральной Азии*
международный научный рецензируемый журнал

2024/2 (11)

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli "Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma"si olingan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO'YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e'lon qilinishi mumkin bo'lgan jurnal sifatida ro'yxatga olingan.

DOI: 26739/2118-9998

ISSN 2049-3630

TOSHKENT

TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (*Bosh muharrir*) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*
SAIDOVA Galina Karimovna – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
SHOUMAROV G'ayrat Baxramovich – *psixologiya fanlari doktori, professor.*
ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich (*Bosh muharrir o'rinbosari*) – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
BEKMURADOV Adham Sharipovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
MA'RUFOVA Gulnora Mahmudovna – *Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi a'zosi, senator.*
MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna – *pedagogika fanlari doktori, professor.*
RAHIMOVA Nigina Xayrullayevna – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
SAIDOV Akmal Xolmatovich – *yuridik fanlari doktori, professor.*
YAKUBJANOVA Dilobar Batirovna – *pedagogika fanlari doktori, dotsent.*
TASHMUXAMEDOVA Diloram Gafurjanovna – *tibbiyot fanlari nomzodi.*
UMIRZAKOV Baxodir Xamidovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
ZIYAYEV Azamad Xamidovich – *tarix fanlari doktori, professor.*
ABDUSAMATOV Xasanboy Usmonjon o'g'li – *psixologiya fanlari doktori.*
TO'RAQULOV Ulug'bek Xolbutayevich – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (*Главный редактор*) – *доктор педагогических наук, профессор.*

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – *доктор социологических наук, профессор.*
Сандова Галина Каримовна – *доктор экономических наук, профессор.*
Шоумаров Гайрат Бахрамович – *доктор психологических наук, профессор.*
Абдураманов Хамид Худайbergenovich (*Заместитель главного редактора*) – *доктор экономических наук, профессор.*
Бекмуратов Адхам Шарипович – *доктор экономических наук, профессор.*
Маъруфова Гулнора Махмудовна – *сенатор, член Комитета Сената Олий Мажлиси по вопросам женщины и гендерного равенства.*
Мусурманова Айниса Мусурмановна – *доктор педагогических наук, профессор.*
Рахимова Нигина Хайруллаевна – *доктор экономических наук, профессор.*
Сандов Акмал Холматович – *доктор юридических наук, профессор.*
Якубжанова Дилобар Батировна – *доктор педагогических наук, доцент.*
Ташмухамедова Дилорам Гафуржановна – *кандидат медицинских наук.*
Умирзаков Баходир Хамидович – *доктор экономических наук, профессор.*
Зияев Азамат Хамидович – *доктор исторических наук, профессор.*
Абдусаматов Хасанбой Усмонжон угли – *доктор психологических наук.*
Туракулов Улугбек Холбутаевич – *доктор философии педагогических наук (PhD)*

THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna
(*Editor-in-Chief*) – *Doctor of Pedagogical sciences, Professor.*

MEMBERS OF THE EDITING BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*
Saidova Galina Karimovna – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Shoumarov Ghayrat Bakhramovich – *Doctor of Psychological sciences, Professor.*
Abduramanov Khamid Khudaybergenovich (*Deputy Editor-in-Chief*) – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Bekmuradov Adkham Sharipovich – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Marufova Gulnora Makhmudovna – *Senator, Member of the Senate Committee of the Oliy Majlis on Women and Gender Equality.*
Musurmanova Aynisa Musurmanovna – *Doctor of Pedagogical sciences, Professor.*
Rakhimova Nigina Khayrullayevna – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Saidov Akmal Kholmatovich – *Doctor of Juridical sciences, Professor.*
Yakubjanova Dilobar Batirovna – *Doctor of Pedagogical sciences, Associate Professor.*
Tashmukhammedova Diloram Ghafurjanovna – *Candidate of Medical sciences.*
Umirzakov Bakhodir Khamidovich – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Ziyayev Azamad Khamidovich – *Doctor of Historical sciences, Professor.*
Abdusamatov Khasanboy Usmonjon ugli – *Doctor of Psychological Sciences.*
Torakulov Ulugbek Holbutayevich – *Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)*

XALQARO TAHRIR HAY'ATI:

Doktor Rashmini Koparkar,
Rossiya va Markaziy Osiyoni o'rganish markazi dotsenti
Xalqaro tadqiqotlar maktabi,
Javoharlal Neru universiteti,
Nyu-Dehli, Hindiston

Artamonova Yekaterina Iosifovna,
Chelyabinsk davlat madaniyat instituti,
pedagogika fanlari doktori, professor

Doktor Priti Kesavan,
Texnologiya fakulteti boshlig'i,
London biznes va moliya maktabi,
Singapur

МЕЖДУНАРОДНАЯ РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Доктор Рашмини Копаркар,
Доцент Центра исследований России и Центральной Азии,
Школа международных исследований,
Университет Джавахарлала Неру,
Нью-Дели, Индия

Артамонова Екатерина Иосифовна,
Челябинский государственный институт культуры,
доктор педагогических наук,
профессор

Доктор Прити Кесаван,
Руководитель Технологического факультета
Лондонская школа бизнеса и финансов, Сингапур

INTERNATIONAL EDITORIAL BOARD:

Dr. Rashmini Koparkar
Assistant Professor
Centre for Russian and Central Asian Studies
School of International Studies
Jawaharlal Nehru University
New Delhi, India

Artamonova Yekaterina Iosifovna
Chelyabinsk State Institute of Culture
Doctor of Pedagogical Sciences,
Professor

Dr. Preethi Kesavan
Head, School of Technology
London School of Business and Finance, Singapore

SOTSIOLOGIYA

Saydivalieva X.X., Kadirova T.J. Mehnat munosabatlarida kamsitish holatlarining oldini olish va gender tengligini ta'minlashning ijtimoiy huquqiy jihatlari	4
Мусаева М.И. Гендерные различия в диагностике расстройства аутистического спектра.....	12
Inoyatova S.J. Oilaviy munosabatlarni muvofiqlashtirishga oid xorij tajribasining o'ziga xos xususiyatlari	17
Ilxamova Z. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida xotin-qizlarning ishtiroki	24
Zokirov S., Xusanova S. O'zbekistonda ta'lim davomiyligi: hududlar va jinslar bo'yicha farqlar, ularning sabablari.....	29

OILA VA JAMIYAT

Hojiyev R.B. Oilaviy nizolarni bartaraf qilishda oilaviy mediatsiyaning roli (Turkiya tajribasi misolida).....	35
Abduramanov X.X., Saxibov O.K., Rustamov J.I. Oilaviy ajrimlarning farzand tarbiyasiga ijtimoiy-psixologik ta'siri	40
Abdibositov A. Huquqiy ong tushunchasining tarkibiy tahliliga oid ayrim fikr va mulohazalar	46
Muhitdinova D. Huquqiy madaniyat yetishmasligi sababli kelib chiqadigan muammolar va ularni bartaraf etish	51

PSIXOLOGIYA

Yangiboyeva D.R. Ko'p bolali oilalar submadaniyatida shaxslararo munosabatlarning psixologik predikatlari	56
Xusanov S. "Mehnat motivatsiyasi" tushunchasining ilmiy-nazariy o'rganilishi	63
Аскарлова Г., Каримова Н. Социально-психологические особенности копинг-поведения среди молодежи	68
Nomozova R.O. Ilm-fan sohasida gender tenglikni rivojlantirishning psixologik aspektlari	75
Imonova M.B. O'smir shaxsi shakllanishida sibling maqomining psixologik ta'siri.....	80
G'ulomqodirov E.A. Psixologik nazariyalarda oilaviy zo'rvonlik tushunchasining talqini	85

PEDAGOGIKA

Qurbonova B.N. Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning ijodkorligini shakllantirish	91
---	----

DEMOGRAFIYA


Dusnayev Sh.E. O'zbekiston aholisi soni va tarkibidagi dinamik o'zgarishlarning iqtisodiy-statistik tahlili	96
--	----

ILMIY YANGILIKLAR VA TAHLILLAR

Rabiyev B.B. Ayollar uy xizmati migratsiyasini tartibga solish bo'yicha Filippin tajribasi.....	102
--	-----



Sayidfozil Zokirov,
O'zbekiston Milliy universiteti
professori, iqtisodiyot fanlari doktori
saidfozil@rambler.ru



Sevara Xusanova,
O'zbekiston Milliy universiteti Iqtisodiyot
fakulteti 2-kurs magistratura talabasi
sevaraxusanova64@gmail.com

O'ZBEKISTONDA TA'LIM DAVOMIYLIGI: HUDUDLAR VA JINSLAR BO'YICHA FARQLAR, ULARNING SABABLARI

Annotatsiya. Maqolada so'nggi 10 yil (2013–2022-yillar) mobaynida O'zbekistonda ta'lim davomiyligi bo'yicha ro'y bergan o'zgarishlar hududlar va jinslar kesimida tahlil qilingan. Kutilayotgan ta'lim davomiyligini inson kamoloti yuqori davlatlar darajasiga yetkazish, shu jumladan, xotin-qizlarning ta'limdagi qamrovini oshirish hamda ta'limdagi tenglikni ta'minlash bo'yicha xulosa va takliflar berilgan.

Tayanch so'zlar: inson kamoloti indeksi, ta'lim indeksi, kutilayotgan ta'lim davomiyligi, hududiy tafovutlar, jinslararo farqlar, ta'limdagi tengsizlik.

Аннотация. В статье анализируются изменения продолжительности образования в Узбекистане за последние 10 лет (2013–2022 гг.) по регионам и полу. Даны выводы и предложения по доведению ожидаемой продолжительности образования до уровня стран с высоким уровнем человеческого развития, в том числе по увеличению охвата женщин образованием и обеспечению равенства в образовании.

Ключевые слова: индекс человеческого развития, индекс образования, ожидаемая продолжительность образования, региональные различия, гендерные различия, неравенство в образовании.

Annotation. The article analyzes changes in the duration of education in Uzbekistan over the past 10 years (2013–2022) by region and gender. Conclusions and proposals are given for bringing the expected duration of education to the level of countries with high levels of human development, including increasing the enrollment of women in education and ensuring equality in education.

Key words: human development index, education index, expected years of education, regional differences, gender differences, inequality in education.

Kirish. Inson kapitali indeksi (Human Capital Index) – sog'liqni saqlash va ta'limning keyingi avlod xodimlarining samaradorligiga qo'shgan hissasini miqdoriy jihatdan belgilaydigan ko'rsatkichdir.

Indeks ilk bor 2018-yil oktyabr oyida e'lon qilingan va 157 ta mamlakatni o'z ichiga olgan. Inson kapitali indeksi bolaning kelajakda qay darajada samarali kadr bo'lib shakllanishini o'lchaydi. Indeks qiymati 0 dan 1 gacha intervalda bo'lib, qiymat 1

ga yaqinlashishi bugungi bolalarning kelajakda qay darajada yetuk inson bo'lib shakllanishini ko'rsatadi¹.

Indeksning muhim xususiyati shundaki, u qat'iy mikro-ekonometrik tadqiqotlarga asoslangan holda sog'liqni saqlash va ta'lim tizimlarining shaxslar va mamlakatlar samaradorligiga qo'shgan hissasini o'lchaydi. Noam Angrist, Simeon Djankov, Pinelopi Koujianou Goldberg va Garri Patrinos kabi

¹ Measuring Human Kapital

mutaxassislar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida Inson kapitali indeksini o'lchash usullari ishlab chiqilgan².

Maqsad va uni asoslash. Inson kapitali indeksi quyidagi 3 ta asosiy komponentdan iborat:

1. Tirik qolish ehtimoli:
 - 5 yoshdan oshgan bolalar ulushi – foizda (%).
2. Ta'lim:
 - ta'lim miqdori (kutlayotgan ta'lim davomiyligi);
 - ta'lim sifati (uyg'unlashgan test natijalari).
3. Salomatlik holati:
 - katta yoshdagilarning umr davomiyligi (60 yoshgacha yashagan 15 yoshli o'smirlar ulushi, %);
 - bolalar o'rtasida sog'lom o'sish (5 yoshgacha bo'lgan bolalarning rivojlanish sur'atlari, %).

Inson kapitali indeksi tirik qolish ehtimoli, ta'lim va sog'liqning mahsuldorlikka nisbiy hissasini quyidagi tarzda ko'paytirish yo'li bilan hisoblanadi:

$IKI = \text{Tirik qolish ehtimoli} * \text{Ta'lim} * \text{Salomatlik holati}$.

Biz mazkur tadqiqot jarayonida inson kapitali indeksining 2-komponenti – ta'limning miqdoriy jihati, ya'ni kutilayotgan ta'lim davomiyligini o'rganishga harakat qildik. Bunda asosiy e'tibor O'zbekistonda kutilayotgan ta'lim davomiyligining 2013–2022-yillardagi hududlar va jinslar kesimidagi tahliliga qaratildi.

Kutilayotgan ta'lim davomiyligi – bu maktab yoshiga yetgan bolaning maktabda (boshlang'ich, o'rta) o'rta ta'lim, so'ngra oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim bosqichlarida o'qishi kutilayotgan yillar ko'rsatkichi yig'indisidir. Ya'ni ma'lum ta'lim bosqichida tahsil olayotgan har bir yoshdagi aholi sonining o'sha yoshdagi jami aholi soniga nisbatlarining yig'indisi tushuniladi.

Bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim sohasida muayyan islohotlar jadal sur'atlarda davom ettirilmoqda. Mamlakatimizdagi ta'lim davomiyligini oshirish, shu jumladan, ta'limdagi xotin-qizlar qamrovini kengaytirish, shahar va qishloq aholisining ta'lim imkoniyatlaridagi tafovutlarni qisqartirish, ta'lim natijalarini yaxshilash kabi masalalar bugungi kunda hukumat tomonidan belgilangan ustuvor masalalardir.

² Kraay, Aart (2018). Methodology for a World Bank Human Capital Index. Policy Research Working Papers. The World Bank. doi: 10.1596/1813-9450-8593. hdl:10986/30466. S2CID 170011611

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining taraqqiyot dasturi va UNESCO statistika institutining 2021-yil ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston 12,5 yil (ayollar – 12,4 yil; erkaklar –12,6 yil)³ ko'rsatkich bilan kutilayotgan ta'lim davomiyligi reytingida dunyoda 191 ta davlat orasida 80-o'rinni egallagan⁴. Avstraliya, Yangi Zelandiya, Islandiya, Shvetsiya, Finlyandiya, Belgiya kabi davlatlar esa bu reytingda yetakchilik qilmoqda (1-jadval).

1-jadval

Ta'lim darajasi indeksi bo'yicha dunyo mamlakatlari reytingi (2022-yil)⁵

№	Mamlakatlar nomi	Kutilayotgan ta'lim davomiyligi (yil)	O'rtacha ta'lim davomiyligi (yil)
1.	Avstraliya	21,1	12,7
2.	Yangi Zelandiya	20,3	12,9
3.	Islandiya	19,2	13,8
4.	Shvetsiya	19,4	12,6
5.	Belgiya	19,6	12,4
6.	Finlyandiya	19,1	12,9
7.	Daniya	18,7	13,0
78.	Armaniston	13,1	11,3
79.	Mo'g'uliston	15,0	9,4
80.	O'zbekiston	12,5	11,9
81.	Bosniya va Gersegovina	13,8	10,5

So'nggi yillarda ta'lim sohasida qator islohotlar amalga oshirildi. Ular ta'limning davomiyligiga qanday ta'sir ko'rsatdi? Shahar va qishloq orasida, hududlar va jinslar o'rtasida qanday tafovutlar mavjud? So'nggi yillarda farqlar qisqardimi? O'zbekiston bilan taraqqiyot darajasi o'xshash davlatlardagi tendensiyalar qanday? Ushbu savollarga javob topish maqsadida rasmiy statistik ma'lumotlardan foydalangan holda, O'zbekistondagi ta'lim imkoniyatlarini 2013 va 2022-yillar bo'yicha hududlar va jinslar kesimida tahlil qilib, 10 yil mobaynida ro'y bergan o'zgarishlarni ko'rib chiqamiz.

³ Human development summary capturing achievements in the HDI and complementary metrics that take into account gender gaps, inequality, planetary pressures and multidimensional poverty. <https://hdr.undp.org/data-center/specific-country-data/#/countries/UZB>

⁴ Рейтинг стран мира по индексу уровня образования // <https://gtmarket.ru/ratings/education-index>

⁵ Рейтинг стран мира по индексу уровня образования // <https://gtmarket.ru/ratings/education-index>

Umumiy ta'lim. 2013-yilda o'zbekistonliklarning kutilayotgan ta'lim davomiyligi 12,5 yil (erkaklar – 12,6 yil, ayollar – 12,4 yil)ni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib bu ko'rsatkich respublika bo'yicha 14,8 yilni tashkil etdi (erkaklar – 14,6 yil, ayollar – 14,9 yil).

2022-yilda hududlar kesimida kutilayotgan ta'lim davomiyligi bo'yicha yuqori ko'rsatkich Toshkent shahri (22 yil) va Navoiy viloyatida (15,7 yil) kuzatildi. Qashqadaryo (12,9 yil) va Surxondaryo (13,1 yil) viloyatlarida esa kutilayotgan ta'lim davomiyligining eng past natijalari qayd etildi. Aholining jinsiy nisbati o'rtasidagi eng yuqori tafovut Toshkent shahri (erkaklarda 2,3 yil ko'proq), Xorazm (ayollarda 1,2 yil ko'proq) va Navoiy (ayollarda 1,1 yil ko'proq) viloyatlarida kuzatildi. Shahar joylarda kutilayotgan ta'lim davomiyligi 13,4 yil (erkaklar – 13,5 yil, ayollar – 13,4 yil), qishloq joylarda 11 yil (erkaklar – 10,7 yil, ayollar – 11,4 yil)ni tashkil etdi.

Boshlang'ich ta'limdanoq o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi, o'qigan matnidan ma'lumot sifatida foydalana olish ko'nikmalarini rivojlantirish zarur. Mamlakatimizda boshlang'ich ta'limdagi tengsizlik, ya'ni o'qish savodxonligi bo'yicha (xalqaro PIRLS testi natijalariga ko'ra) tengsizlik nisbatan yuqori. Ya'ni eng yaxshi va eng yomon (kvartillar orasidagi) natijaga erishgan o'quvchilar orasidagi tafovut nisbatan baland (48 ta mamlakat ichida 33-o'rin).

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study – xalqaro o'qish savodxonligini o'rganishdagi yuksalish) – bu turli mamlakatlarda boshlang'ich sinfdagi tahsil oluvchi o'quvchi yoshlarning matnini o'qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir. Boshlang'ich sinfdagi tengsizlik yuqori bosqichlardagi ta'limda ham tengsizlikning sababi bo'lishi mumkin. Dunyoda kutilayotgan ta'lim davomiyligi boshlang'ich ta'lim yoshidan boshlab hisoblanadi. Rivojlangan davlatlarda maktabgacha ta'lim uning keyingi bosqichlariga nisbatan iqtisodiy o'sishga ko'proq ta'sir ko'rsatishi isbotlangan. Shuning uchun kutilayotgan ta'lim davomiyligini maktabgacha ta'lim bosqichida ham tahlil qilamiz.

Maktabgacha ta'lim. Bolalar maktabda o'qishi uchun ta'limning bazaviy ko'nikmalariga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida tayyorgarlik ko'rib kelgan bolalarga

ta'lim berish boshlang'ich sinf o'qituvchisiga yengillik tug'diradi. So'nggi yillarda xususiy sektorning ta'lim tizimida faolligini oshirishga qaratilgan siyosat va markazdan uzoqda joylashgan hududlarda oilaviy bolalar bog'chalarini tashkil etish, bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasining oshishiga katta hissa qo'shmoqda.

2013-yilda respublikada 3–6 yoshli bolalar jami 2 517 860 nafarni tashkil etgan bo'lib, shundan 463 732 nafari (18,4 foizi) maktabgacha ta'lim bilan qamrab olingan. 2022-yilda esa bu yoshdagi bolalar 2 931 856 nafarni tashkil etib, shundan 1 448 013 nafari (49,4 foizi) maktabgacha ta'lim bilan qamrab olindi.

2013-yilda 3–6 yoshli bolalarning kutilayotgan ta'lim davomiyligi respublika bo'yicha 0,7 yil, shaharlarda 1,4 yil, qishloq joylarda 0,4 yilni tashkil etgan. Shaharlarda ham, qishloqlarda ham qiz va o'g'il bolalarning maktabgacha ta'lim davomiyligi bir xil bo'lgan. 2022-yilda bu ko'rsatkich ancha yuqorilab, respublikada 2,1 yil, shaharlarda 2,3 yil, qishloq joylarda 1,7 yilni tashkil etdi. Yuqorida qayd etilgan raqamlar bu sohada amalga oshirilayotgan davlat siyosatining ijobiy natijasi, demakdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, 2030-yilga kelib bolalarning 80,8 foizini maktabgacha ta'limga qamrab olish ko'zda tutilgan. Natijada so'nggi yillarda mamlakatimizda bog'chalar soni 6 barobarga ko'paydi. O'lis va chekka hududlarda minglab oilaviy bog'chalar tashkil qilindi. Tarbiyachi va pedagoglar soni 3 barobarga o'sib, 160 mingga yetdi. Shuningdek, pedagog kadrlar malakasini tizimli oshirib borish ishlari yo'lga qo'yildi. Ushbu choralar tufayli bog'chalarda ta'lim va tarbiya oladigan bolalar soni 600 mingdan 2 millionga yetkazilib, qamrov ko'lami 70 foizga chiqdi. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda 10 mingdan ortiq o'rta ta'lim maktablari faoliyat ko'rsatmoqda. So'nggi yillarda bog'chaga borayotgan bolalar sonining oshishiga asosiy sabab davlat bog'chalaridan tashqari xususiy va uy bog'chalarining ochilishi bolalar qamrovini kengaytirdi.

Jumladan, O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonini yillar kesimida olib qaraydigan bo'lsak:

- 2017-yilda – 5211 ta;
- 2018-yilda – 7104 ta;
- 2019-yilda – 13 530 ta;
- 2020-yilda – 18 254 tani tashkil etgan.

Davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining umumiy soni 19 316 tani tashkil qilmoqda. Shundan, davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 6258 tani, nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari esa 13 058 tani tashkil etgan. Shuningdek, xususiy maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 795 tani, davlat xususiy sherikchilik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 1051 tani, oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni esa 11 212 tani tashkil etadi⁶.

Hududlarda jinslar o'rtasida tafovut yo'q. 2022-yilda ushbu ta'lim bosqichida respublika bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahri (2,9 yil) va Qoraqalpog'iston Respublikasi (2,5 yil)da, eng past ko'rsatkich esa Qashqadaryo (1,2 yil) va Surxondaryo (1,5 yil) viloyatlarida qayd etilgan. Mazkur bosqichda 1–6 yoshli va 3–6 yoshli bolalarning kutilayotgan ta'lim davomiyligida deyarli farq yo'q.

Boshlang'ich ta'lim. 2013-yilda boshlang'ich ta'lim davomiyligi respublikada 3,9 yil (shu jumladan, shaharlarda – 4,2 yil, qishloq joylarda – 3,6 yil)ni tashkil etgan edi. 2022-yilda esa bu ko'rsatkich respublikada 3,8 yilni tashkil etdi. Respublika bo'yicha ushbu ko'rsatkichda qiz va o'g'il bolalar o'rtasida tafovut yo'q. Shahar joylarda kutilayotgan ta'lim davomiyligi 4,2 yil (o'g'il bolalar – 4,2 yil, qiz bolalar – 4,1 yil), qishloq joylarda 3,5 yil (o'g'il bolalar – 3,5 yil, qizlar – 3,6 yil)ni tashkil etdi.

Boshlang'ich ta'lim 4 yilni tashkil qilgan paytda ushbu holatning kuzatilishini, mehnat muhojirlari farzandlarining xorijda ta'lim olishi, qishloq joylarda yashovchi aholining o'z farzandlarini shahardagi maktablarga olib borishi, 2022-yilgacha 7 yoshga to'lmagan bolalarning ham maktabga qabul qilinishi kabi sabablar bilan izohlash mumkin.

O'rta ta'lim. Ta'limning keyingi bosqichi, ya'ni o'rta ta'lim (5–9 sinflar)dagi kutilayotgan davomiylik 2013-yilda respublika miqyosida 4,8 yilni tashkil etgani holda, o'g'il va qiz bolalar orasida deyarli tafovut bo'lmagan. Shahar joylarda

⁶ “Mamlakatimizda bog'chalar soni 6 barobarga ko'paydi”, – Shavkat Mirziyoyev // <https://uzreport.news/politics/mamlakatimizda-bog-chalar-soni-6-barobarga-ko-paydi-shavkat-mirziyoyev>

bu ko'rsatkich 4,9 yilga (o'g'il bolalar – 5,0 yil, qiz bolalar – 4,7 yil), qishloq joylarda esa 4,4 yilga (o'g'il bolalar – 4,3 yil, qiz bolalar – 4,4 yil) teng bo'lgan. 2022-yilda respublika miqyosida 11–15 yoshli bolalarning kutilayotgan ta'lim davomiyligi 4,9 yil (o'g'il bolalar – 4,9 yil, qiz bolalar – 4,8 yil) ni tashkil etdi.

Oxirgi yillarda shaharlarda ta'lim davomiyligi sezilarli darajada oshgan: shahar joylarda 5,5 yil (o'g'il bolalar – 5,6 yil, qiz bolalar – 5,4 yil), qishloq joylarda 4,3 yil (o'g'il bolalar – 4,2 yil, qiz bolalar – 4,4 yil).

O'rta maxsus ta'lim. O'rta ta'limning so'nggi bosqichida (16–19 yoshlilar) ya'ni akademik litseylar, kasb-hunar kollejlarda tahsil olayotganlarning ta'lim olish davomiyligi 2013-yilda 2,6 yilni tashkil qilgan (o'g'il bolalar – 2,6 yil, qiz bolalar – 2,5 yil). 2022-yilga kelib bu ko'rsatkich 2,3 yilni tashkil etdi (o'g'il bolalar – 2,1 yil, qiz bolalar – 2,5 yil). Ushbu bosqichda ta'lim davomiyligining pasayishini so'nggi yillarda maktablarda 10-11-sinflarning qayta tiklangani, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari sonining keskin qisqarishi, 16–19 yoshlilar orasida oliy ta'limda tahsil olayotganlar soni ortgani bilan izohlash mumkin.

Tahlil jarayonida O'zbekistonda 19 yoshgacha bo'lgan qiz bolalarning o'g'il bolalarga nisbatan ulushi ko'proq ekanligi aniqlandi. Bu professional kollej hamda texnikumlarda o'qiyotgan o'smirlar orasida qizlar ulushining kattaligi bilan izohlanadi. Bunga sabab o'g'il bolalar orasida 9-sinfni bitirgandan keyin mehnat bozoriga o'tib ketish holatlari ko'proq kuzatilishidir.

O'zbekistonda ta'lim olish imkoniyatlari jinslar kesimida 17 yoshgacha teng. 18 yoshga kelganda ayollarning ta'lim olish imkoniyatlari ortadi. 19 yoshlilar orasida ayollarning 94 foizi, erkaklarning esa 60 foizi ta'lim oladi. 23–34 yosh oralig'ida erkaklarning ta'lim olish imkoniyati ayollarnikiga nisbatan 0,02 foiz yuqoriroq. 35 yoshdan yuqori aholi orasida yana ayollarning rasmiy ta'lim olish imkoniyati oshadi. Shu bilan birga, informal ta'limda erkaklar (31,2 foiz)ning ayollar (25,2 foiz) ga nisbatan ko'proq ishtirok etishi, erkaklarda oilani boquvchi mas'uliyatining ustun turishi va aynan oila daromadini oshirish uchun ta'lim olishga ko'proq e'tibor qaratishi bilan izohlanadi.

Oliy va undan keyingi ta'lim. Oliy ta'lim tizimida xususi oliy ta'lim muassasalari, mahalliy

va xorijiy oliy ta'lim muassasalari filiallarining ochilishi, kam ta'minlangan oilalarning farzandlari, nogironligi bor shaxslarga ko'rsatilayotgan imtiyozlar, magistraturada o'qiydigan xotin-qizlar to'lov kontraktlarining davlat tomonidan qoplab berilishi kabi omillar yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrov darajasi oshishiga olib keldi. Natijada 2013-yilda oliy ta'limda 259 290 nafar talaba tahsil olgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 1 042 100 nafarga yetdi yoki o'tgan davr mobaynida talabalar soni 4,0 marta ortdi.

2013-yilda oliy va undan keyingi ta'limda kutilayotgan ta'lim davomiyligi respublikada 0,4 yil (erkaklar – 0,5 yil, ayollar – 0,3 yil)ni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib bu ko'rsatkich respublika bo'yicha 1,6 yilni tashkil etdi (erkaklar – 1,7 yil, ayollar – 1,6 yil). Toshkent shahrida oliy ta'lim muassasalarining ko'pligi evaziga oliy va undan keyingi ta'limda kutilayotgan davomiylik 7,5 yil (erkaklar – 8,7 yil, ayollar – 6,3 yil). Qolgan hududlarda bu ko'rsatkich 0,8 yildan 1,8 yilgacha oraliqlarda kuzatildi.

Mamlakatimizda 2013 va 2022-yillardagi turli ta'lim bosqichlarida kutilayotgan davomiylik va hududlar kesimida ular orasidagi tafovutlar 2-jadvalda tasvirlangan.

Xulosa qilib aytganda, oxirgi 10 yil mobaynida kutilayotgan ta'lim davomiyligi O'zbekiston hududida sezilarli darajada oshdi. Shunga qaramasdan, mamlakatimiz bu sohada "Rossiya Federatsiyasi (15,5), Belarus (15,4) va Qozog'iston (15,3) kabi qo'shni"⁸ davlatlardan ancha orqada.

Mazkur tadqiqot jarayonida inson kapitali indeksining 2-chi komponenti – ta'limning miqdoriy jihati, ya'ni ma'lum ta'lim bosqichida tahsil olayotgan har bir yoshdagi aholi sonining, o'sha yoshdagi jami aholi soniga nisbatlari yig'indisi ko'rsatkichi o'rganildi.

Yakuniy qism. Yuqorida ta'kidlanganidek, kutilayotgan ta'lim davomiyligi mustaqil ko'rsatkich bo'lmay, u inson kapitali indeksining tarkibiy komponentidir. Shu bois, mazkur ko'rsatkich asosida amalga oshirilgan tahlillar bu masala bo'yicha to'laqonli xulosalar chiqarish imkonini bermaydi.

Demografik vaziyat, ta'lim sifati va aholi salomatligi bo'yicha hududiy tafovutlarning,

⁸ Ж.Шарипов. Аҳоли фаровонлиги раванки йўлида олий таълимнинг сифат ва даражасини ошириш – долзарб масала. <https://cyberleninka.ru/article/n/a-oli-farovonligi-ravna-i-y-lida-oliy-talimning-sifat-va-darazhasini-oshirish-dolzarb-masala/viewer>

2-jadval

Kutilayotgan ta'lim davomiyligi (yil)⁷

№	Hududlar nomi	Umumiy ta'lim		Maktabgacha ta'lim (3–6 yosh)		Oliy va undan keyingi ta'lim (17+ yosh)	
		2013-yil	2022-yil	2013-yil	2022-yil	2013-yil	2022-yil
	O'zbekiston Respublikasi	12,5	14,8	0,7	2,1	0,4	1,6
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	11,6	14,8	0,8	2,5	0,4	1,5
	Viloyatlar:						
2.	Andijon	12,0	14,1	0,7	2,1	0,3	1,0
3.	Buxoro	12,5	14,8	0,9	2,2	0,4	1,8
4.	Jizzax	12,3	14,4	0,6	2,1	0,3	1,3
5.	Qashqadaryo	11,7	12,9	0,5	1,2	0,2	0,8
6.	Navoiy	13,0	15,7	0,9	2,4	0,4	1,7
7.	Namangan	12,2	13,8	0,8	1,9	0,2	1,0
8.	Samarqand	12,0	13,8	0,6	1,8	0,3	1,2
9.	Surxondaryo	11,7	13,1	0,4	1,5	0,1	0,9
10.	Sirdaryo	12,1	14,1	0,8	2,0	0,2	1,3
11.	Toshkent	12,0	14,0	1,0	1,9	0,1	1,1
12.	Farg'ona	12,9	14,5	0,9	2,3	0,2	1,2
13.	Xorazm	12,1	14,4	0,5	2,2	0,2	1,2
14.	Toshkent shahri	18,4	22,0	2,5	2,9	2,6	7,5

⁷ Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузурдаги Статистика агентлиги маълумотлари асосида муаллифлар ҳисоблаган

ularning kelib chiqish sabablari keyingi tadqiqot ishlarida o'rganiladi.

Biroq hozirning o'zida, yuqoridagi tahlil natijalariga asoslanib aytish mumkin, O'zbekistonda ta'lim davomiyligini oshirish, shu jumladan, xotin-qizlar ta'lim qamrovini kengaytirish bo'yicha muayyan yutuqlarga erishilgan. Endi esa shahar va qishloq aholisining ta'lim imkoniyatlaridagi tafovutlarni qisqartirish, ta'lim natijalarini yaxshilash uchun sifatga e'tibor qaratish zarur.

Buning uchun quyidagi ishlar amalga oshirilishi zarur, deb hisoblaymiz:

– qishloq joylarda oilaviy bog'chalarni tashkil qilish imkoniyatlarini oshirish uchun muhandislik - kommunikatsiya infratuzilmalarini yaxshilash;

– qishloq joylardagi umumta'lim maktablari uchun pedagoglarni maqsadli tayyorlash (qishloq yoshlari orasidan salohiyatli yoshlarni tanlash va 3 tomonlama shartnoma asosida o'qitish);

– o'rta umumta'lim maktablarini kompyuterlar bilan ta'minlash va internet tarmog'iga ulash qamrovini kengaytirish;

– umumta'lim maktablarida (ayniqsa, qishloq joylarda) informatika fanidan bepul qo'shimcha to'garaklar tashkil qilish (buning uchun byudjet mablag'lari ajratish va homiylik yordamlarini yo'naltirish). To'garaklar o'quv dasturini tuzishda o'quvchilarning mustaqil ta'lim platformalaridan (coursera, khan academy) foydalana olish ko'nikmalarini egallashiga alohida e'tibor berish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. [Measuring Human Kapital](#)
2. Kraay, Aart (2018-09-25). Methodology for a World Bank Human Capital Index. Policy Research Working Papers. The World Bank. doi: [10.1596/1813-9450-8593](https://doi.org/10.1596/1813-9450-8593), hdl:[10986/30466](https://hdl.handle.net/10986/30466). S2CID [170011611](https://doi.org/10.1596/1813-9450-8593)
3. Human development summary capturing achievements in the HDI and complementary metrics that take into account gender gaps, inequality, planetary pressures and multidimensional poverty. <https://hdr.undp.org/data-center/specific-country-data#/countries/UZB>
4. Рейтинг стран мира по индексу уровня образования // <https://gtmarket.ru/ratings/education-index>
5. "Mamlakatimizda bog'chalar soni 6 barobarga ko'paydi" - Shavkat Mirziyoyev // <https://uzreport.news/politics/mamlakatimizda-bog-chalar-soni-6-barobarga-ko-paydi-shavkat-mirziyoyev>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari.
7. Шарипов Ж. Аҳоли фаровонлиги равнаки йўлида олий таълимнинг сифат ва даражасини ошириш – долзарб масала. <https://cyberleninka.ru/article/n/a-oli-farovonligi-ravna-i-y-lida-oliy-talimning-sifat-va-darazhasini-oshirish-dolzarb-masala/viewer>

“OILA VA GENDER” ILMIIY-TADQIQOT INSTITUTI
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «СЕМЬЯ И ГЕНДЕР»
“FAMILY AND GENDER” RESEARCH INSTITUTE

MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT,
GENDER VA OILA

Общество, гендер и семья в Центральной Азии
Society, Gender and Family in Central Asia

xalqaro ilmiy jurnali

международный научный журнал

international academic journal

2024/2 (10)

DOI: 26739/2118-9998

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO‘YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e‘lon qilinishi mumkin bo‘lgan jurnal sifatida ro‘yxatga olingan.

MUASSIS:

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti

JURNAL TAHRIRIYATI:

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**

Mas‘ul kotib: **Mavlonov B.**

Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O‘.,
Razzakova N., Sobirova E.,
Jabborov U.**

Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**

Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**

Web dizaynerlar: **Yakubov O., Alimova Z.**

Jurnaldagi materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e‘tiborga olgan holda jurnalga havola berilishi shart.

Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 29.07.2024.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 7,2.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,

M.Ismoilıy ko‘chasi 1-G uy.